

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.09.2020.T.111.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**

MUSTAYEV RUSLAN AKTAMOVICH

**QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN
TA'MINLANUVCHI ELEKTR USKUNALAR UCHUN KONTAKTSIZ
QURILMALARNI ISHLAB CHIQISH VA TADQIQ QILISH**

05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Qarshi – 2024

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Content of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Mustayev Ruslan Aktamovich

Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan ta'minlanuvchi elektr uskunalar uchun kontaktlessiz qurilmalarni ishlab chiqish va tadqiq qilish..... 3

Мустаев Руслан Актамович

Разработка и исследование бесконтактных устройств для электроустановок, питающихся от возобновляемых источников энергии..... 21

Mustaev Ruslan Aktamovich

Development and research of contactless devices for electrical installations powered by renewable energy sources..... 41

E'lon qilingan ishlar ro'xati

Список опубликованных работ

List of published works..... 45

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.09.2020.T.111.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**

MUSTAYEV RUSLAN AKTAMOVICH

**QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN
TA'MINLANUVCHI ELEKTR USKUNALAR UCHUN KONTAKTSIZ
QURILMALARNI ISHLAB CHIQISH VA TADQIQ QILISH**

05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Qarshi – 2024

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/T4246 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat texnika universiteti va Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.qmii.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Bobojanov Maxsud Kalandarovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy oponentlar: Sadullayev Nasullo Nematovich
texnika fanlari doktori, professor

Yuldashev Isroil Abriyevich
texnika fanlari doktori, professor


Yetakchi tashkilot: "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini
mexanizatsiyalash muhandislari instituti"
Milliy tadqiqot universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti huzuridagi PhD.03/30.09.2020.T.111.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "18" ⁰¹ soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 225-uy, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti konferensiyalar zali. Tel.: (+99875) 224-02-89, faks: (8375) 224-13-95, e-mail: kiei_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 132 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 225-uy. Tel.: (+99875) 224-02-89, faks: (8375) 224-13-95 e-mail: kiei_info@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "26" 12 kuni tarqatildi.
(2024 yil "26" 12 dagi № 27 raqamli reestr bayonnomasi).




G.N. Uzoqov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor


X.A. Davlonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, texnika fanlari bo'yicha
falsafa doktori, dotsent


B. Urishev
Ilmiy kengash huzuridagi ilmiy
darajalar beruvchi ilmiy seminar raisi,
texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida elektr energiyasini ishlab chiqarish hamda elektr ta'minoti tizimiga integratsiya qilish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. An'anaviy energiya manbalarida ishlatiladigan yoqilg'ich resurslarini tejash va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan unumli foydalanish, ularning parametrlari hamda foydalanish rejimlarini optimallashtirish dolzarb masala hisoblanadi. Quyosh fotoelektrik stansiyalari mavjud bo'lgan kombinatsiyalashgan elektr ta'minoti tizimlarida vujudga keladigan quvvat isroflari nafaqat asosiy funksional elementlarning elektromagnit mutanosibligiga, balki tizimni boshqarish va himoya qilishda ishlatiladigan kommutatsion apparatlarga ham bog'liq. Bunday elektr tizimlarda kontaktsiz elektr qurilmalarni ishlatish maqsadga muvofiq ular kontaktli qurilmalarga nisbatan 10÷20 martagacha tezkor hisoblanadi¹. Ushbu turdagi kommutatsion apparatlarni qo'llash kombinatsiyalashgan quyosh elektr ta'minoti tizimlari samaradorligini va ishonchliligini oshiradi. Xususan kombinatsiyalashgan tizimda reaktiv quvvat kompensatsiyasini avtomatik tarzda amalga oshirish hamda quvvat koeffitsiyentini talab etilgan qiymatlarini doimiy ravishda ta'minlash tizim energiya samaradorligini oshiradi. Quyosh fotoelektrik stansiyalari tomonidan faqatgina aktiv quvvat generatsiya qilinishini inobatga olib, iste'molchilar tomonidan talab qilinadigan reaktiv quvvatni zarur miqdorda va operativ tarzda yetkazib berish orqali liniyalarda vujudga keladigan isroflarni kamaytirish, ularning o'tkazuvchanlik qobiliyatini oshirish hamda sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda quyosh fotoelektrik stansiyalar mavjud bo'lgan elektr ta'minoti tizimlarida ishonchliligi yuqori bo'lgan kommutatsion apparatlardan foydalanib uskunalarni kommutatsiyalash, reaktiv quvvatni ratsional kompensatsiya qilish hisobiga elektr tarmoqlaridagi quvvat isrofini kamaytirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada elektr tarmoqlaridagi kuchlanish sifatini o'zgarmas holatini saqlash va rostlash hisobiga iste'mol qilinayotgan elektr energiyasini talab etilgan sifatini ta'minlash, shu tariqa elektr uskunalari ishlashining yuqori texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlariga erishishni ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda energetika tizimini takomillashtirish, elektr energiyasini generatsiya qilish imkoniyatlaridan maksimal foydalanish, jumladan qayta tiklanuvchan energiya manbalarini qo'llagan holda ishlab chiqariladigan elektr energiya miqdorini oshirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Qayta tiklanuvchi energiya ta'minoti tizimining ishonchliligi elektr iste'molchilarining kommutatsiyasi va quvvat uzatishni xavfsiz amalga oshirilishi bilan bog'liq. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan ta'minlanuvchi suv nasoslarini kommutatsiyalash va kondensator batareyalarini quvvatini avtomatik boshqarish uchun kontaktsiz qurilmalar qo'llanilganda ular boshqalaridan tezligi, uzoq muddat xizmat qilishi, ishlaganda shovqin chiqarmasligi bilan ajralib turadi. Mavjud kontaktsiz ishga tushirish qurilmalari murakkab boshqaruv tizimiga ega bo'lib, bu

¹ <https://djvu.online/file/6NVQGZRgpOSlu>

esa ularni o‘rnatish, ishga tushirish, sozlash va texnik xizmat ko‘rsatish vaqtida qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, bu omillar ularni keng qo‘llanilishiga to‘sqinlik qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 9 sentyabrdagi PF-220-son “Energiya tejevchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni, 2023 yil 13 fevraldagi PQ-54-son “Yoqilg‘i-energiya resurslaridan foydalanish sohasida davlat nazorati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2023 yil 16 fevraldagi PQ-57-sonli “2023 yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejevchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va boshqa ushbu yo‘nalishdagi hukumatimizning meyoriy-huquqiy hujjatlarida belgilab berilgan vazifalarni bajarishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan miqdorda xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo‘yicha tadqiqotlar Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish usullarini rivojlantirish, nanotexnologiyalar, fotonika va boshqa ilg‘or texnologiyalar va qurilmalarni yaratish” ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Kontaktsiz kommutatsiyalash qurilmalarini yaratish bo‘yicha taniqli xorijlik olimlar, jumladan R.A.Hamilton, G.R.Lezan, V.P.Ilyashov, G.M.Rubashov, A.A.Poskrobko, A.G.Soskov, I.M.Tumanov, Y.F.Vagapov va B.I.Kudrinlar tomonidan ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan.

Elektr energiyani qayta tiklanuvchan energiya manbalari asosida samarali ishlab chiqarish va bunday stansiyalarni elektr energetika tizimiga integratsiyalash bilan bog‘liq bo‘lgan ilmiy muammolarni hal qilishga O‘zbekistonning taniqli olimlaridan X.F.Fazilov, S.A.Azimov, J.A.Abdullayev, R.A.Zaxidov, T.X.Nasirov, Q.R.Allayev, R.R.Avezov, X.M. Muratov, I.A. Yuldashev va boshqa olimlarning bir qator ilmiy ishlari bag‘ishlangan.

Respublikamizda kommutatsiyalovchi qurilmalarni takomillashtirish borasida yetakchi olimlar T.M.Qodirov M.K.Bobojanov, Z.O.Eshmurodov, E.G.Usmonov, A.N.Rasulov, M.M.Fayziyev, R.CH.Karimov, E.X.Abduraimov, M.S.Sa’dullayev va boshqalar katta hissa qo‘shganlar. Yuqoridagi olimlar tomonidan turli sohalarda foydalanish uchun ko‘p sonli kontaktsiz qurilmalar ishlab chiqildi va ishlab chiqarishga joriy etilgan.

Erishilgan ijobiy natijalarga qaramasdan, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan ta‘minlanuvchi elektr uskunalar kompensatsion qurilmalarining quvvatini avtomatik boshqarish uchun kontaktsiz ishga tushirgichlar sxemasini ishlab chiqish muammosi yetarli darajada o‘rganilmagan. Ishlab chiqilgan qurilmalar murakkab konstruksiya va katta o‘lchamlarga ega hamda tiristorning ishlashini boshqaradigan tizimi juda murakkab. Bu esa bunday qurilmalarni o‘rnatish, sozlash va texnik xizmat ko‘rsatishda qiyinchiliklar tug‘diradi hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan ta‘minlanuvchi tizimlarda keng qo‘llanilishiga to‘sqinlik qiladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti hamda Qarshi muhandislik - iqtisodiyot institutida olib borilayotgan "Qayta tiklanuvchan energiya manbalari va markazlashgan elektr tarmog'ini o'zaro integratsiya qilish" va "Kontaktsiz qurilmalarni qo'llash orqali elektr ta'minoti tizimi ishonchligi va energiya samaradorligini oshirish" mavzularidagi tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi qayta tiklanuvchan energiya manbalari integratsiyalashgan elektr tarmoqlarida kontaktsiz qurilmalarni qo'llash orqali tizim ishonchligini oshirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

qayta tiklanuvchan energiya manbalari kombinatsiyalashgan tizimlarda reaktiv quvvatni avtomatik tarzda kompensatsiyalash vazifasini bajaradigan qurilmalarni konstruktiv jihatdan takomillashtirish zarurligini asoslash;

turli energiya manbalari mavjud elektr ta'minot tizimlarida reaktiv quvvatni avtomatik tarzda kompensatsiya qilish uchun konstruktiv jihatdan sodda hamda ishonchli kontaktsiz kommutatsiya qurilmasi sxemasini ishlab chiqish;

qayta tiklanuvchan energiya manbalari mavjud tarmoqlar uchun yangi turdagi kontaktsiz qurilmalar ishini modellashtirish va tarkibiga kiruvchi elementlarning parametrlarini hisoblash metodikasini takomillashtirish;

yangi turdagi kontaktsiz qurilma bilan jihozlangan uskunani eksperimental tadqiq qilish va tajriba natijalarini nazariy hisoblashlar qiymatlari bilan taqqoslash.

Tadqiqotning obyekti qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan ta'minlanuvchi elektr ta'minot tizimlaridagi kommutatsiya qurilmalari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti qayta tiklanuvchan energiya manbalari integratsiyalashgan elektr tarmoqlari uchun yangi texnik sxemalarni ishlab chiqish va tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida imitatsion modellashtirish, analitik va raqamli hisoblash usullari, turli jarayonlarda ishlaydigan elektr jixozlarni kommutatsiya qilish qurilmalarini nazariy va amaliy tadqiqotlarida, reaktiv quvvat kompensatsiyasi texnologik jarayonlarini tajribaviy tadqiq qilish va ko'p sonli tajriba natijalarini qayta ishlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

quyosh fotoelektr stansiyalari asosidagi elektr ta'minoti tizimlarida reaktiv quvvatni avtomatik tarzda kompensatsiya qilish va elektr uskunalarini ishga tushirish uchun yangi turdagi kontaktsiz qurilma ishlab chiqilgan (№ FAP 02240);

kontaktsiz qurilmalar asosidagi gibrid fotoelektr stansiyalari integratsiyalashgan elektr ta'minoti tizimlarida reaktiv quvvatni operativ kompensatsiyalash orqali tizim samaradorligini oshirish imkonini beradigan, avtomatik boshqarish sxemasi ishlab chiqilgan;

tarmoqqa integratsiyalangan quyosh fotoelektr stansiyalaridan ta'minlanuvchi asinxron matorli suv nasosining energetik ko'rsatkichlarini aniqlash imkonini beradigan imitatsion model ishlab chiqilgan;

kombinatsiyalashgan elektr ta'minoti tizimidagi kontaktsiz qurilmalar ishlash ishonchliligini oshirish imkonini beradigan elementlarining chegaraviy tok va kuchlanishlari qiymatlarini hisoblashning uslubiyoti har bir elementning ishdan chiqishlar intensivligini inobatga takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan ta'minlanuvchi uskunalarni kommutatsiyalovchi bir hamda uch fazali kontaktsiz ishga tushirish qurilmalari takomillashtirilgan.

qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan ta'minlanuvchi uskunalarni reaktiv quvvatini kompensatsiyalovchi uch fazali kombinatsiyalashgan kontaktsiz ishga tushirish qurilmasi takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi sanoat sharoitida zamonaviy usul va o'lchash vositalaridan foydalangan holda olingan tajriba natijalari bilan asoslanadi, olingan natijalarga matematik ishlovlar berish, kuzatuv va taqqoslash usullari, natijalarni qayta ishlashning umum e'tirof etilgan usullari qo'llanilganligi va amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati har xil turdagi elektr jihozlari uchun mavjud ishga tushirgichlarning konstruksiyalari tahlili asosida soddalashtirilgan konstruksiyaga ega va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan ta'minlanuvchi elektr motorlarning ishonchli ishlashini ta'minlovchi, yangi turdagi ishga tushirgichlar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati taklif etilayotgan takomillashtirilgan metodika asosida elektr jihozlarning ishlash muddatini uzaytirish imkonini beruvchi ishonchli, ixcham va tejamkor kontaktsiz qurilmalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan ta'minlanuvchi uskunalarni kommutatsiyalovchi kontaktsiz ishga tushirish qurilmalarini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

bir fazali elektr motorini kommutatsiyalovchi ishga tushirgich uchun O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk markazidan foydali modelga patent olingan (№ FAP 02240; 2023 yil). Natijada quyosh fotoelektrik stansiyalaridan elektr energiya bilan ta'minlanuvchi bir fazali elektr iste'molchilarni kommutatsiyalovchi va reaktiv quvvatini avtomatik kompensatsiyalovchi kontaktsiz ishga tushirish qurilmasi takomillashtirilgan;

kontaktsiz qurilmalardan foydalangan holda reaktiv quvvatni avtomatik tarzda kompensatsiya qilish usuli "Muborak issiqlik elektr markazi"ga qarashli quyosh fotoelektrik stansiyasiga integratsiya qilingan elektr ta'minot tizimida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi "Issiqlik elektr stansiyalari" AJ ning 2023 yil 29 avgustdagi №04-20/613-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, reaktiv quvvatni avtomatik kompensatsiyalashda elektr ta'minot tizimining sifat ko'rsatkichlari yaxshilashning, elektr energiyasi isrofi yil davomida 304,24 ming kW · soatga kamaytirishning hamda 123,4 mln. so'm iqtisodiy samaradorlikga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 10 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, shu jumladan, 6 ta xalqaro va 4 ta respublika anjumanlarida muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 21 ta ilmiy ishlar chop etilgan bo'lib, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan 1 ta xalqaro va 6 ta respublika jurnallarida ilmiy maqolalar nashr qilingan. 1 ta maqola Scopus bazasiga kiruvchi to'plamlarda nashr etilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk markazidan bitta foydali modelga patent va EHM uchun 4 ta dasturiy mahsulotga mualliflik guvohnomalari olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 114 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqot maqsadi va vazifalari asoslangan; tadqiqot obyekti va predmeti ifodalangan; tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan; ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan; dissertatsiya tadqiqoti natijalarining ishlab chiqarishga joriy qilinishi hamda sinov natijalari ko'rsatilgan; chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Quyosh fotoelektrik stansiyalarni boshqarish va ishonchliligini oshirish uchun kontaktsiz qurilmalar texnik sxemalari tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida qayta tiklanuvchan energiya manbalari asosidagi qurilmalarni qo'llanilishi dolzarbligi, hozirgi holati hamda istiqbollari, quyosh fotoelektrik stansiyalari sxemalari va tarkibiy elementlari tahlili, quyosh fotoelektrik stansiyasining elektr ta'minoti tizimida reaktiv energiya iste'molini avtomatik boshqarish uchun kontaktsiz qurilmalar, fotoelektrik tizimdagi suv nasoslarini kommutatsiyalovchi kontaktli hamda yarimo'tkazgich asosidagi kontaktsiz ishga tushirgichlar tahlili bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Quyosh fotoelektrik stansiyalarining butlovchi jihozlari uchun kontaktsiz qurilmalarni ishlab chiqish”** deb nomlangan ikkinchi bobida tarmoqqa integratsiyalangan quyosh fotoelektrik stansiyalaridan ta'minlanuvchi suv nasosi uchun reaktiv quvvatni kompensatsiyalash qurilmalari, quyosh fotoelektrik tizimi ta'minoti ishonchliligi va muntazam ishlashini ta'minlovchi omillar, quyosh fotoelektrik stansiyalaridan ta'minlanuvchi bir fazali elektr iste'molchilar va uch fazali uskunalari uchun kontaktsiz qurilmalarini ishlab chiqish, quyosh fotoelektrik stansiyalaridan ta'minlanuvchi katta quvvatli suv nasoslarini kommutatsiyalovchi kontaktsiz ishga tushirish qurilmasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Elektr ta'minoti tizimining ishonchliligi tizimda foydalanilgan qurilma va elementlarning soni, ularning ishdan chiqish intensivligi qiymati kabi bir qancha parametrlarga bog'liq bo'lib, ishonchlilikka ta'sir etuvchi qurilmalardan biri bu kommutatsiya apparatlari hisoblanadi. Tizim ishonchliligini ta'minlashda asosan kontaktsiz kommutatsion qurilmalaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Kontaktsiz kommutatsion qurilmalari kontakтли qurilmalarga qaraganda operativ ishga tushirish, shovqinsiz ishlashi va yuqori ishonchlilik ko'rsatkichlariga ega.

Qayta tiklanuvchan energiya manbalari mavjud bo'lgan elektr ta'minoti tizimlarida iste'molchilarni tarmoqqa uzib – ulash va reaktiv quvvat kompensatsiyasini operativ hamda ishonchli tarzda amalga oshirish uchun, kontaktsiz avtomatik tarzda boshqariladigan qurilmalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda konstruktiv jihatdan sodda, ishonchli, tarmoqdagi yuz beradigan jarayonlarga operativ tarzda ta'siran javob beradigan bir fazali kontaktsiz ishga tushirish qurilmasi ishlab chiqildi.

Ushbu kontaktsiz kommutatsiyalash qurilmasi qayta tiklanuvchan energiya manbalari mavjud tarmoqlarda reaktiv quvvatni kompensatsiya qilish maqsadida foydalaniladigan kondensator batareyalarini, bir fazali elektr motorlarini, aktiv hamda aktiv-induktiv xarakterdagi yuklamalarni tarmoq kuchlanishi 220 V va chastotasi 50 Hz bo'lgan manbaga kommutatsiyalash uchun xizmat qiladi.


Yangi kontaktsiz ishga tushirish qurilmasi kommutatsiya bloki, kuch simistorlaridan, boshqaruv zanjiridagi rezistorlar, optopara hamda mikrokontrollerdan iborat (1 – rasm).



1 – rasm. Bir fazali kontaktsiz ishga tushirgich sxemasi
 VS1, VS2 – simistorlar; OP1, OP2 - optoparalar,
 MK- mikrokontroller, TB- ta'minot bloki

Nazorat qilinadigan parametr sifatida $\cos\phi$ qiymatini doimiy ushlab turish vazifasi qo'yilishi mumkin va shu tarzda qayta tiklanuvchan energiya manbalari

mayjud tarmoqning ishonchliligi oshiriladi. 2-rasmda avtonom ishlovchi bir fazali tizimda kontaktsiz qurilma yordamida avtomatik tarzda quvvat koeffitsiyentini ushlab turish, ya'ni boshqacha so'z bilan aytganda reaktiv quvvatni operativ kompensatsiyalash sxemasi keltirilgan.




2 - rasm. Avtonom elektr ta'minoti tizimda bir fazali kontaktsiz reaktiv quvvat kompensatsiyasi sxemasi.

Uch fazali elektr iste'molchilarni elektr tarmog'iga ishonchli ulash hamda uzish uchun kontaktsiz ishga tushirgichlarni ishlab chiqish ham dolzarb vazifalardan biri hisoblanishini inobatga olib, uch fazali kontaktsiz kommutatsiya qilish qurilmasi ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan ishga tushirgich qayta tiklanuvchan energiya manbalaridan ta'minlanuvchi uch fazali iste'molchilar hamda elektr motorlarni ishga tushirish uchun mo'ljallangan.

Gibrid quyosh fotoelektrik stansiyasi elektr ta'minoti tizimlarida kondensator batareyalarini kontaktsiz ulash uchun uch qutbli, uch fazali qurilma ishlab chiqildi. Ushbu qurilma simistor, diod, optopara, ta'minlash bloki hamda boshqaruv mikrokontroleridan iborat bo'lib, shovqinsiz ishlaydi va tarmoqqa qisqa vaqt ichida ulab - uzish imkonini beradi. Bu esa fotoelektr stansiya mavjud bo'lgan tarmoqda $\cos\phi$ qiymatini talab etilgan qiymatidan kelib chiqqan holatda reaktiv quvvatni qisqa vaqt ichida kerakli miqdorda kompensatsiyalash imkonini beradi.

Gibrid quyosh fotoelektrik stansiyasi, quyosh fotoelektrik panellari, tarmoq invertori, avtonom inverter, hisobga olish va monitoring tizimi hamda akkumulyator batareyalaridan iborat. Ushbu tizim elektr iste'molchilarini quyosh fotoelektrik panellaridan olingan elektr energiyasi bilan ta'minlaydi. Fotoelektrik panellar tomonidan ishlab chiqarilgan elektr energiya iste'mol qilinadigan miqdordan katta bo'lgan taqdirda ortiqcha energiya akkumulyator batareyalariga yoki markazlashgan elektr ta'minotiga yo'naltiriladi. Ushbu tizimdagi reaktiv energiyani iste'mol

qiluvchi abonentlar ushbu turdagi energiyani tarmoqdan iste'mol qiladilar. Markazlashgan tarmoqda uzilishlar vaqtida tarmoqdan reaktiv quvvat iste'moli ham to'xtaydi. Ushbu reaktiv quvvatni stansiyaning o'zida hosil qilishga ehtiyoj mavjudligi uchun, uch fazali kontaktsiz qurilmalar asosidagi reaktiv quvvatni kompensatsiyalash qurilmasi ishlab chiqildi (3-rasm). Ushbu reaktiv quvvatni kompensatsiyalash qurilmasi quyosh fotoelektrik stansiyasi iste'molchilari uchun talab etilgan miqdordagi reaktiv quvvatni ishlab chiqarishi bilan bir qatorda kuchlanish qiymatini ham rostdash imkonini beradi.



3 – rasm. Gibrid quyosh fotoelektrik stansiyasida reaktiv quvvatni kompensatsiyalash sxemasi.


Tarmoqda reaktiv quvvatga talab sezilsa, PFR-12 qurilmasidan mikrokontrollerga navbatdagi qo'shish signali uzatiladi va mikrokontroller kerakli kondensator batareyalarini tarmoqqa ulash vazifasini bajaradi.

Bu holda kontaktsiz ishga tushirish qurilmasi mikrokontrollerga o'rnatilgan dastur yordamida hamda qat'iy ketma - ketlikda kondensator batareyalarini tarmoqqa ulash hamda ortiqcha reaktiv quvvat hosil bo'lganda kamaytirish vazifasini bajaradi. Bir vaqtning o'zida qurilma 3 ta quvvati har xil bo'lgan kondensator batareyalarini tarmoqqa quvvat oshib borish tartibida hamda kamayish tartibida kombinatsiyalashgan usulda ulash - uzish vazifasini bajaradi.

Dissertatsiyaning **“Fotoelektrik suv nasoslarining kontaktsiz ishga tushirish qurilmalarini modellashtirish va hisoblash”** deb nomlangan uchinchi bobida, tarmoqqa integratsiyalangan quyosh fotoelektrik stansiyalaridan ta'minlanuvchi nasos agregatining elektr ta'minoti tizimi imitatsion modelini ishlab

chiqish, quyosh fotoelektrik stansiyalaridan ta'minlanuvchi bir va uch fazali nasoslarni ishga tushirishda qo'llaniladigan kontaktsiz qurilmalarni imitatsion modelini yaratish, quyosh fotoelektrik stansiyalarida qo'llaniladigan kontaktsiz qurilmalar tarkibiy elementlarini hisoblash va tanlash metodikasini takomillashtirish, quyosh fotoelektrik stansiyalaridan ta'minlanadigan nasoslar va boshqa uskunalarni kontaktsiz ishga tushirish qurilmalarini ishonchlikka tekshirish bo'yicha ma'lumot keltirilgan.

MATLAB tizimining - Simulink vizual dasturlash paketi yordamida bir va uch fazali kontaktsiz ishga tushirish qurilmasining imitatsion modellari ishlab chiqildi. Imitatsion modellar yordamida bir va uch fazali elektr motorlarining ishga tushirish jarayoni simulyatsiya qilindi hamda tok va kuchlanishlar o'zgarish ossillogrammalari olindi. 4-rasmda bir fazali tiristor asosidagi kontaktsiz ishga tushirish modeli va uning yordamida olingan kuchlanish va tok ossillogrammalari ko'rsatilgan.




4-rasm. Bir fazali qurilmaning imitatsion modeli va uning yordamida olingan kuchlanish va tok ossillogrammalari

5-rasmda uch fazali nasosni kontaktsiz qurilma orqali ishga tushirish modeli va uni qo'llash orqali olingan toklar ossillogrammalari ko'rsatilgan. Sxema uch fazali kuchlanish manbaini simulyatsiya qiluvchi va "yulduz" usulda ulangan o'zgaruvchan kuchlanishli uchta Voltage Source blokdan, fazalarga qaraba – qarshi parallel ulangan oltita Tiristor, ... Tiristor 5 simulyatsiya qiluvchi tiristorlar bloklari, o'lchash va ro'yxatga olish, ishga tushirish vaqtida elektr motorining parametrlarini nazorat qilish uchun qurilmalar va qisqa tutashtirilgan rotorli asinxron elektr motordan iborat.

Ossillogramma nasosning ishga tushirishdagi stator toklarining o'zgarishi parametrlarini ko'rsatadi. Bu yerda motorning ishga tushish toki 0,3 soniyadan so'ng

ruxsat etilgan qiymatga erishadi, bu kichik quvvatli asinxron motorlar uchun xosdir. Bu holda, tiristorli ishga tushirgich an'anaviy kommutatsiya qurilmasi kabi ishlaydi va elektr motorlari hamda texnologik uskunalarni ishga tushirish uchun puskatel sifatida qo'llanilishi mumkin.



5 - rasm. Uch fazali nasosni imitatsion modeli va asinxron motorni ishga tushirishdagi tokning ossillogrammalari

Yuqorida keltirilgan kontaktless qurilmalar elementlarini hisoblash va tanlash uchun takomillashgan metodika ishlab chiqildi.

Yuklama tokining hisobiy qiymati quyidagi ifodadan hisoblanadi:

$$I_{n.M.} = \frac{P_n}{3 \cdot U_n \cdot \eta \cdot \cos\varphi} \quad (1)$$

Yuklama tokining amplituda qiymati:

$$I_m = \sqrt{2} \cdot I_{n.M.} \quad (2)$$

Simistor orqali o'tuvchi tokning o'rtacha qiymati.

$$I_{orr} = \frac{I_m}{K_a} \quad (3)$$

Bu yerda $K_a = 3,14$ amplituda koeffitsiyenti.

Kuchlanishning amplituda qiymati.

$$U_m = \sqrt{6} \cdot U_n \quad (4)$$

Simistorning ta'sir etuvchi toki qiymati.

$$I_{t.e} = K_f \cdot I_{orr} \quad (5)$$

Bu yerda $K_f = \frac{K_a}{2} = \frac{3,14}{2} = 1,57$

Tok va kuchlanishning chegaraviy qiymatlarini tanlash shartlari:

$$I_{cheg} > I_{orr} \quad U_{ch} = 1,5 \cdot U_m \quad (6)$$

Nazariy va eksperimental tadqiqotlar natijalaridan kelib chiqib, tokning chegaraviy qiymatlarini aniqlashda quyidagi formuladan foydalanish taklif qilinadi: chegaraviy tok o'rtacha qiymatidan 3÷4 marta katta bo'lishi kerak.

$$I_{cheg} > 3 \div 4 \cdot I_{orr} \quad U_{ch} = 1,5 \cdot U_m \quad (7)$$

Oltita Pin li optosimistorlarning qarshiligi:

$$R_{os} = \frac{U_K}{I_{nom}} \quad (8)$$

Bir fazali sxemadagi R3 qarshilikning qiymati quyidagi ifodadan aniqlanadi.

$$R3 = \frac{E_K - U_{os.max}}{I_{ch.min}} \quad (9)$$

Xizmat muddati davomida svetodiod yorug‘ligi samaradorligini pasayishini hisobga olgan holda, $I_{ch.min}$ qiymatiga 30 % qo‘shiladi va natijaviy qiymat $I'_{ch.min} = 1,3 \cdot I_{ch.min}$ ifodadan aniqlanadi. Shuni hisobga olgan holda, R3 qarshilikni hisoblash formulasi quyidagicha bo‘ladi:

$$R3 = \frac{E_K - U_{os.max}}{I'_{ch.min}} \quad (10)$$

Shu tariqa kontaktsiz ishga tushirish qurilmalar elementlarini hisoblash metodikasi tok va kuchlanishning chegaraviy qiymatlari, $I_{ch.min}$ qiymatini hisoblashga yangicha yondashuvni inobatga olgan holda takomillashtirildi.

1 – jadval

Kontaktsiz ishga tushirgichlarning ishonchlikka tekshirish natijalari.

	1 – sxema 1 fazali	1 – sxema 3 fazali	2 – sxema 1 fazali	2 – sxema 3 fazali	3 – sxema 1 fazali	3 – sxema 3 fazali
$\lambda_{min}, 10^{-6} soat^{-1}$	146	205,4	66,88	100	27,3	41
$\lambda_{max} 10^{-6} soat^{-1}$	303	568	94,3	183	140,5	211
$T_{max}, soat$	6849	4869	14952	10000	36630	24390
$T_{min}, soat$	3300	1760	10605	5464	7117	4739
$T, soat$	5075	3315	12779	7732	21874	14564

Kontaktsiz ishga tushirish qurilmalarini ishonchlikka tekshirish uchun 3 ta muqobil sxemalar ko‘rib chiqilib, o‘zaro taqqoslandi.

Ishonchlik o‘rtacha ish vaqti - $T = \frac{1}{\lambda_{\Sigma}}$, o‘z navbatida kutilmaganda ishdan chiqishlarning intensivlik doimiyligiga (λ) bog‘liq.

Ishga tushirgich uchun kutilmaganda ishdan chiqishlarining ehtimoli quyidagi ifodadan topiladi:

$$\lambda_{\Sigma} = \sum_{i=1}^n \lambda_i \quad (11)$$

Murakkab apparaturaning ishonchliligi alohida elementlarning uzluksiz ishlashiga bog‘liq, shuning uchun uzluksiz ishlashni miqdoriy baholash qurilmaning barcha elementlari ishonchliligini hisobga olishni talab qiladi. Uzluksiz ishlash vaqtining t davomiyligida qurilmaning ishonchliligi matematik jihatdan quyidagicha aniqlanadi:


$$P = e^{-\lambda t} \quad (12)$$

Bu yerda: λ – kutilmaganda ishdan chiqishlar intensivlik doimiyligi;
 t – qurilmaning uzluksiz ishlash davomiyligi.

Agar qurilma n ta elementdan tashkil topgan bo‘lsa:

$$P_{qurilma} = e^{-\lambda_1 t} e^{-\lambda_2 t} \dots \dots e^{-\lambda_n t} = e^{-t(\lambda_1 + \lambda_2 + \dots + \lambda_n)} \quad (13)$$

Shunday qilib, elektromagnit boshqariladigan kichik quvvatli kontaktlardan foydalangan holda, katta quvvatli tiristorlarni ishga tushirish qurilmasini 1000 soat ekspluatatsiya qilish davomida ishonchliligi $94,19 \div 91,38$ % ni, tiristorli kontaktsiz ishga tushirish qurilmasining ishonchliligi $94,32 \div 93,04$ %, simistorli qurilmaning ishonchliligi esa $99,53 \div 96,92$ % ni tashkil qiladi. 6-rasmda kontaktsiz ishga tushirish qurilmalarining ishonchlilik qiymatlari diagrammasi keltirilgan.




6 – rasm. Kontaktsiz ishga tushirish qurilmalarining ishonchlilik qiymatlari diagrammasi

Dissertatsiyaning “**Fotoelektrik quyosh elektr stansiyalarining energiya ta’minoti tarmoqlarida kontaktsiz qurilmalarni eksperimental tadqiq qilish**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida eksperimental tadqiqotning maqsadi, quyosh fotoelektrik stansiyalari tuzilmasi va tarkibiy elementlari, quyosh fotoelektrik stansiyalari elektr ta’minot tizimida reaktiv quvvatni ratsional kompensatsiya qilish tizimini tadqiq qilish, tarmoqqa integratsiyalangan quyosh fotoelektrik stansiyalari uchun yangi turdagi kontaktsiz qurilmalarni eksperimental tadqiq qilish, quyosh fotoelektrik stansiyalari elektr ta’minot tizimida reaktiv quvvatni ratsional kompensatsiya qilish qurilmasini mavjud analoglar bilan taqqoslash va tizimni iqtisodiy samaradorlik bo‘yicha tahlil qilish bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Quyosh fotoelektrik stansiyasi tarmoqqa integratsiya qilinganda, elektr iste’molchilarining tarmoqdan iste’mol qiladigan aktiv quvvati kamayadi, ular

iste'mol qilayotgan aktiv energiya quyosh elektr stansiyasi tomonidan ishlab chiqariladi. Natijada, tarmoqdan iste'mol qilinadigan aktiv va reaktiv quvvat o'rtasidagi nisbat o'zgaradi. Quyosh fotoelektrik stansiyasidan ta'minlash boshlanganda, tarmoqdagi quvvat koeffitsiyenti qiymati avvalgi qiymatidan pasayadi. Shu sababli, tarmoqdagi kam quvvat koeffitsiyenti hosil qiluvchi isroflarga yo'l qo'yimaslik uchun, quvvat koeffitsiyentini rostdlashga alohida e'tibor qaratish lozim.

7-rasmda kombinatsiyalashgan tizimda reaktiv quvvatni kompensatsiyalash qurilmasini funksional sxemasi ko'rsatilgan. Yetishmayotgan quvvatning katta qismini reaktiv quvvat tashkil etadi va u transformator orqali iste'mol qilinadi. Bu holat quyosh fotoelektrik stansiyasi ishlab chiqarayotgan maksimal quvvatda hamda maksimal reaktiv quvvat iste'moli vaqtida maksimal qiymatga intiladi. Minimum reaktiv quvvat iste'molida hamda quyosh fotoelektrik stansiyasi energiya ishlab chiqarmaydigan holatda o'zining eng kichik qiymatiga erishadi. Quyosh paneli ishlab chiqarayotgan quvvat faqat aktiv quvvatni tashkil etganligi sababli $\cos\phi=1$ ga teng bo'ladi. Ta'minlanayotgan iste'molchilarni turi va xususiyatidan kelib chiqib, quvvat koeffitsiyentining qiymatlari $\cos\phi=0,7\div 1,0$ ga teng bo'ladi. Quvvati 630 kVA bo'lgan transformator mavjud elektr tarmog'iga integratsiya qilingan quyosh fotoelektrik stansiyasining o'rnatilgan quvvati 29 kWni tashkil etadi.



7 – rasmda kombinatsiyalashgan tizimda reaktiv quvvatni kompensatsiyalash qurilmasini funksional sxemasi


Ushbu qurilma reaktiv quvvatni 12 ta pog'onada rostdlash imkonini beradi. Signallarni qabul qiluvchi Pinlarni tartibiga qarab mikrokontroller kerakli quvvatdagi kondensator batareyasi quvvatini tarmoqqa ulash vazifasini bajaradi.

Kondensator batareyalari ikkita guruhga bo'lingan bo'lib, ularning quvvatlari 2,5 kVAr, 5 kVAr, 7,5 kVAr va reaktiv quvvatni rostdlash chegarasi 2,5 kVAr dan 30 kVAr gacha bo'ladi.

Yangi ishga tushirish qurilmasi quvvati 3 kW gacha bo'lgan qayta tiklanuvchan energiya manbalaridan ta'minlanuvchi elektr iste'molchilarni ishga tushirish hamda iste'mol qilinayotgan reaktiv quvvatni kompensatsiya qilish imkonini beradi. Yangi qurilma qo'llagan holda uch fazali elektr iste'molchilari, jumladan AO41-6 tipidagi uch fazali asinxron motor qayta tiklanuvchi energiya manbalari integratsiya qilingan tarmoqqa ulandi.

Ushbu asinxron motorning texnik xarakteristikalari quyida keltirilgan: $R=1 \text{ kW}$; $\cos\varphi = 0,72$; $n=960 \text{ ayl/min}$; $U=220\text{V}/380\text{V}$, $U=220\text{V}$ da $I= 4,8 \text{ A}$; $U=380 \text{ V}$ da, $I = 2,8 \text{ A}$; $\eta=77\%$, $I_{\text{ish.tu}}/I_n=6$.

Asinxron motor, quvvati 5 kW bo'lgan 4 ta va 10 kW bo'lgan 1 ta tarmoq inverteri mavjud quyosh fotoelektrik stansiyasi integratsiya qilingan tarmoqqa ulandi, tarmoq faza kuchlanishlari: $U_{Af}=229 \text{ V}$; $U_{Bf}=230 \text{ V}$; $U_{Cf}=232 \text{ V}$.




8 – rasm. Motorning kontaktless ishga tushirgich orqali tarmoqqa ulash vaqtidagi kuchlanish hamda tok ossillogrammasi


Asinxron motorning qayta tiklanuvchan energiya manbalari mavjud tarmoqqa ta'sirini tadqiq qilish tajriba stendi 8 a- rasmda ko'rsatilgan. Elektr motorning ishga tushirish, ishchi va reaktiv quvvatini kompensatsiyalash rejimlari o'rganildi.

Uch fazali kontaktless qurilmaning kommutatsiya jarayonidagi kuchlanish va tok ossillogrammalari LeCroy64Xi-A turidagi ossillograf yordamida olindi. Motor qayta tiklanuvchan energiya manbalari mavjud tarmoqqa ulanib, uning ishga tushish vaqtidagi kuchlanish hamda tok ossillogrammalari 8 b- rasmda tasvirlangan.

Quyosh fotoelektrik stansiyasi integratsiya qilingan tarmoqqa ulangan AO41-6 tipidagi motorning ishga tushirish, ishchi va reaktiv quvvatini kompensatsiyalash rejimlarida har bir fazadagi tok va kuchlanishlar qiymatlari: $U_{Af}=228 \text{ V}$; $U_{Bf}=227 \text{ V}$; $U_{Cf}=230 \text{ V}$; ishga tushirishdagi tok qiymatlari $I_{Af}=12,21 \text{ A}$; $I_{Bf}= 11,8 \text{ A}$; $I_{Cf}=11,8 \text{ A}$; ishchi rejimdagi tok qiymatlari $I_{Af}=2,79 \text{ A}$; $I_{Bf}= 2,88 \text{ A}$; $I_{Cf}=2,71 \text{ A}$ 9 a -rasm, va reaktiv quvvatini kompensatsiyalash rejimlaridagi tok qiymatlari $I_{Af}=1,96 \text{ A}$; $I_{Bf}= 1,92 \text{ A}$; $I_{Cf}=1,76 \text{ Amp}$ ni tashkil etdi 9 -rasm b.




a)



b)

9 - rasm. Motor qayta tiklanuvchan energiya manbalari mavjud tarmoqqa ulanganda ish (a) va reaktiv quvvatini kompensatsiyalash (b) rejimidagi kuchlanish hamda tok ossilogrammalari

Bir fazali kontaktsiz ishga tushirish qurilmasi simistor, simistorni sovitish uchun qoʻllanilgan radiator, uch dona turli qarshilik qiymatiga ega rezistorlar, optosimistor, boshqaruv bloki vazifasini bajaruvchi mikrokontrollerdan hamda boshqaruv blokini taʼminlovchi 220/5 Voltli taʼminot manбайдan iborat. Bir fazali kontaktsiz ishga tushirish qurilmasini umumiy koʻrinishi 10 – rasmda tasvirlangan.



10 - rasm. Bir fazali qurilma orqali kondensator batareyasini quyosh fotoelektrik stansiyasi mavjud tarmoqqa ulanishini umumiy koʻrinishi.

Bir fazali kontaktsiz ishga tushirish qurilmasi orqali reaktiv quvvat kompensatsiyasi uchun qoʻllaniladigan kondensator batareyasini tarmoqqa ulash orqali undagi tok va kuchlanish qiymatlari aniqlandi. MBGO-2 turli kondensator batareyasini texnik parametrlari: U_n kuchlanishi 400 V, sigʻimi 10 mkF $\pm 10\%$. Kontaktsiz kommutatsiyalash jarayonida kondensator ulangan faza kuchlanishi 234 V, kondensator batareyasidan oqib oʻtuvchi tok 0,65 A, reaktiv quvvati 152 VAR ni tashkil etdi.

XULOSA

“Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan ta’minlanuvchi elektr uskunalari uchun kontaktsiz qurilmalarni ishlab chiqish va tadqiq qilish” mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi umumiy xulosalar taqdim etildi:

1. Qayta tiklanuvchan energiya manbalari mavjud bo‘lgan tizimlar va sxemalarini tahlil qilish asosida, ushbu tizimlarni ishonchliligi ularda qo‘llanilayotgan kommutatsion apparatlarga bog‘liq ekanligi aniqlandi hamda kondensator batareyalari quvvatini avtomatik rostlash va asinxron motorlarni kommutatsiyalash uchun konstruktiv jihatdan sodda va arzon kontaktsiz qurilmalar ishlab chiqish zarurligi asoslandi.

2. Qayta tiklanuvchan energiya manbalari integratsiyalashgan tizimlarda kondensator batareyalari quvvatini avtomatik rostlash va asinxron motorlarni kommutatsiyalash uchun kontaktsiz qurilmalar ishlab chiqildi (FAP 02240). Natijada, yangi kommutatsion apparatlarni qo‘llash orqali elektr ta’minoti tizimi ishonchliligi oshirish va ularning optimal ishlashini ta’minlash imkoni yaratildi hamda reaktiv quvvatni kompensatsiyalash qurilmasi tannarxini 27,8% ra kamaytirishga erishildi.

3. MATLAB tizimining - Simulink vizual dasturlash paketi yordamida tarmoqqa integratsiyalangan FESdan ta’minlanuvchi nasos agregati tizimini hamda bir va uch fazali kontaktsiz ishga tushirish qurilmalarini imitatsion modellari ishlab chiqildi. Imitatsion modeldan foydalangan holda bir va uch fazali nasoslarining ishga tushirish jarayonlari simulyatsiya qilindi hamda tok va kuchlanishlar ossillogrammalari olindi.

4. Kontaktsiz ishga tushirish qurilmalar elementlarini hisoblash metodikasi tok va kuchlanishning chegaraviy qiymatlari, $I_{ch.min}$ qiymatini hisoblashga yangicha yondashuvni inobatga olgan holda takomillashtirildi. Natijada, yangi metodikani qo‘llash orqali optoparalarning ishlash toki 20% ga kamayishi hisobiga kontaktsiz ishga tushirish qurilmasining ishonchliligi ortdi.

5. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan ta’minlanuvchi nasoslari hamda uskunalarni kontaktsiz ishga tushirish qurilmalari ishonchlilikka tekshirish natijalariga ko‘ra, simistorli kontaktsiz qurilmasi (R=99,53 %), elektromagnit bilan boshqariladigan tiristorlarni ishga tushirish qurilmasi (R=94,19 %) hamda tiristorli kontaktsiz qurilmasiga qaraganda (R=94,32%) yaxshiroq ko‘rsatkichlarga ega ekanligi aniqlandi. Natijada, yangi turdagi kontaktsiz qurilmalar boshqalariga nisbatan (5,21÷5,34) % yuqori ishonchlilik ko‘rsatkichlarga ega ekanligi ko‘rsatib berildi.

6. Reaktiv quvvatni avtomatik ravishda kompensatsiyalovchi qurilma “Issiqlik elektr stansiyalari” aksionerlik jamiyati “Muborak IEM” filialining FES integratsiya qilingan sex nasoslarini ta’minlovchi tizimida joriy etildi va yillik iqtisodiy samara 123,4 mln. so‘mni tashkil etdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ РnD.03/30.09.2020.Т.111.03
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
КАРШИНСКОМ ИНЖЕНЕРНО-ЭКОНОМИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ
КАРШИНСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ**

МУСТАЕВ РУСЛАН АКТАМОВИЧ

**РАЗРАБОТКА И ИССЛЕДОВАНИЕ БЕСКОНТАКТНЫХ УСТРОЙСТВ
ДЛЯ ЭЛЕКТРОУСТАНОВОК, ПИТАЮЩИХСЯ ОТ
ВОЗОБНОВЛЯЕМЫХ ИСТОЧНИКОВ ЭНЕРГИИ**

05.05.06- Энергоустановки на основе возобновляемых видов энергии

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (РnD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Карши– 2024

Тема диссертации доктора философии по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за B2023.4.PhD/T4246

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном техническом университете и Каршинском инженерно-экономическом институте.

Автореферат диссертации написан на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)), размещен на веб-странице Научного совета (www.qmii.uz) и на информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: **Бобожанов Махсуд Каландарович**
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Садуллаев Насулло Нематович**
доктор технических наук, профессор

Ведущая организация: **Юлдашев Исроилад Абриевич**
доктор технических наук, профессор


Национальный исследовательский университет
«Ташкентский институт инженеров ирригации и
мелиорации сельского хозяйства»

Защита диссертации состоится «18» 01 2025 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.09.2020.T.111.03 при Каршинском инженерно-экономическом институте (Адрес: 180100, г.Карши, ул. Мустакиллик, 225. Конференц-зал Каршинского инженерно-экономического института Тел.: (+99875)-224-02-89; факс: (+99875)-224-13-95 e-mail: kiei_info@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Каршинского инженерно-экономического института (зарегистрирована №122). (Адрес: 180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, 225. тел (+99875) 224-02-89), факс: (+99875)-224-13-95 e-mail: kiei_info@edu.uz).

Автореферат диссертации разослан «26» 12 2024 года.
(реестр протокола рассылки №27 от «26» 12 2024 года).




Г.Н. Узаков
Председатель Научного совета по присуждению
ученых степеней, д.т.н., профессор


Х.А. Давлонов
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней, д.ф.т.н., доцент


Б.Уришев
Председатель научного семинара
при Научном совете по присуждению
ученых степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Востребованность и актуальность темы диссертации. В мире придается особое значение вопросам выработки электроэнергии на основе возобновляемых источников энергии и их интеграции в систему электроснабжения. Актуальными являются также вопросы экономии топливных ресурсов, применяемых в традиционных источниках энергии и эффективного использования возобновляемых источников энергии, оптимизации их параметров и режимов использования. Потери мощности, возникающие в комбинированных системах электроснабжения, имеющих в своем составе солнечные электростанции, зависят не только от электромагнитной совместимости основных функциональных элементов, но и от коммутационных аппаратов, используемых для управления и защиты системы. В таких электрических системах целесообразно использовать бесконтактные электрические устройства, быстродействие которых, как считается, в 10÷20 раз выше по сравнению с контактными.² Использование коммутационных аппаратов этого вида повышает эффективность и надежность комбинированных солнечных систем электроснабжения. В частности, энергоэффективность комбинированной системы повышается за счет автоматической компенсации реактивной мощности и постоянного обеспечения требуемых значений коэффициента мощности в такой системе. С учетом того, что солнечные электростанции генерируют только активную энергию, важное значение имеют снижение потерь, возникающих на линиях, повышение пропускной способности данных линий, а также улучшение показателей качества за счет предоставления потребителям требуемой реактивной мощности оперативно и в необходимом количестве.

В мире проводятся научные исследования, нацеленные на сокращение потерь мощности в сетях за счет рациональной компенсации реактивной мощности и коммутации оборудования с использованием коммутационных аппаратов высокой надежности в системах электроснабжения, в состав которых входят солнечные фотоэлектрические станции. В этом направлении особое внимание уделяется вопросам обеспечения требуемого качества потребляемой электроэнергии за счет поддержания и регулирования качества напряжения в электрических сетях и достижения таким образом высоких технико-экономических показателей работы электрооборудования.

В нашей республике придается особое значение совершенствованию электроэнергетической системы, максимальному использованию возможностей генерации электроэнергии, в том числе увеличению объема выработки электроэнергии за счет использования возобновляемых источников энергии. Надежность системы возобновляемого энергоснабжения зависит от вида коммутации потребителей электроэнергии и безопасного осуществления передачи мощности. При использовании бесконтактных устройств для коммутации электрических насосов, питающихся от возобновляемых источников энергии, и автоматического управления мощностью

² <https://djuv.online/file/6NVQGZRgpOSlu>

конденсаторных батарей, которые отличаются от других устройств быстротой действия, длительным сроком службы и отсутствием шума при работе. Существующие бесконтактные пусковые устройства имеют сложную систему управления, что создает трудности при их установке, наладке, запуске и техническом обслуживании, эти факторы препятствуют их широкому применению.

Данная диссертационная работа в определенной мере служит реализации задач, намеченных в Указе Президента Республики Узбекистан от 9 сентября 2022 года № УП-220 «О дополнительных мерах по внедрению энергосберегающих технологий и развитию возобновляемых источников энергии малой мощности», постановлениях Президента Республики Узбекистан от 13 февраля 2023 года № ПП-54 «О мерах по повышению эффективности государственного контроля в сфере использования топливно-энергетических ресурсов», от 16 февраля 2023 года № ПП-57 «О мерах по ускорению внедрения возобновляемых источников энергии и энергосберегающих технологий в 2023 году», а также других нормативно-правовых документах по данному направлению.

